

VOYAGA YETMAGANLAR YOSHLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKINI OLDINI OLISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Do'sboyeva Saida Xujamovna

*Navoiy viloyati Nurota tumani MMTB ga qarashli
53- umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik, bu- dolzarb muammo, uni hal etish esa zamonaviy jamiyatning asosiy vazifalaridan biri.

Kalit so'zlar: ajrim, o'g'irlik, voyaga yetmaganlar, nikoh, avtoritar tarbiya, jinoyat

KIRISH.

Yoshlik bu - har bir insonning eng go'zal va hissiyotlarga boy davridir. Bu paytda inson juda ko'p orzular qiladi, o'zining dunyosida yashaydi, hayotni o'zgacha tasavvur qiladi ya'ni, hayotda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardan qochishga urinadi va bu tufayli ular jinoyat ko'chasiga kirib qolishadi. Bu toifadagi yoshlar Agressiv xulq-atvor turiga kirishadi ya'ni, ular og'ir vaziyatlardan, muammolardan qochib chiqishadi. Yunon faylasufi Aristotel aytganidek, "Yoshlar o'z tabiyatiga ko'ra faol, qiziquvchan va qat'iyatlidir. Ularni to'g'ri yo'nalishga solish - jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir." Shu sababli bu ne'matdan foydalanib qolish, o'z xatolarini to'g'irlash, o'zning bilim salohiyatini oshirish va jamiyatda o'z o'rnini topa olish uchun harakat qilish kerak.

Voyaga yetmaganlar deganda kimlarni tushunishimiz kerak? "Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya" da 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs bola hisoblandi ya'ni, ularning huquqlari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq bo'ladi. Boshqacha aytganda ularning huquqlari, erkinliklari va burchlari "Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda yoki shunga o'xshash qonunlarda kafolatlangan, chunki, ular bola - o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar bo'lgan shaxslardir.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik, bu- dolzarb muammo, uni hal etish esa zamonaviy jamiyatning asosiy vazifalaridan biri. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqa uni yurish -turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib berolmasak, bu omonatni boy berib quyishimiz hech gap emas" deya takidlagan fikrlaridan yoshlarga qanchalik e'tibor berilayotganini bilsak bo'ladi.

Ammo, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar soni kamayish o'rniga yanada o'sib bormoqda, bu holat eng demokratlashgan va iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ham kuzatilmoqda. Statistika e'tibor qaratsak, jinoyatlarda

yoshlarning ulushi: Rossiya fedratsiyasida 33%, Angliyada 35%, Fransiya 23%, Ispaniyada 85%, AQSHda 32 foizni, bundan tashqari World Population Review[6] tashkilotchilari 2023-yilda jinoyatchilik tarajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarning reytingini e'lon qildi. Eng ko'p Venesuela, Yangi Gveniya va Janubiy Afrika mamlakatlari, eng past esa Shveysariya, Daniya, Norvegiya, Yaponiya, Yangi Zellandiya mamlakatlari, chunki bu mamlakatlarda samarali huquq tartibot organlari mavjud. Bu reytingda O'zbekiston 33,42 foiz bilan 99-o'rinda, chegaradosh mamlakatlarimiz: Qozog'iston 53,77 foiz bilan 40-o'rin, Qizg'iziston 56,87 foiz, 31-o'rin va Avg'oniston esa 4-o'rinni egalladi. Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar davlatning rivojlanmasligiga sabab bo'luvchi, islohatlarga to'siq bo'lishi, balki, o'sib kelayotgan yosh avlodga ham ta'sir qiladi. Chunki, voyaga yetmaganlar xulq -atvorining o'zgarishiga yonidagi do'stlarining xatti-harakatlari, oiladagi ijtimoiy muhit, ijtimoiy tarmoqlar va tashqi jarayonlar ta'sir qiladi.

Muhokama va natijalar:

O'zbekistonda besh yil ichida voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar 4,4 barobar oshganini kuzatish mumkin. Yil davomida:

Tovlamachilik 70%

Bezorilik 60%

Qastdan badanga shikast yetkazish 40%

Nomusga tegish va odam o'ldirishga urinish 20% ko'paydi.

Voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishini asosiy sabablarini o'rganadigan bo'lsak, o'z bolasiga befarq ota-onalar sonining o'sishini keltirib o'tsak bo'ladi. Chunki har bir bola tarbiyani o'z oilasida oladi, ularni jinoyat yo'liga kirishiga ham asosiy sabab bu - oilaviy muhit. Ayrim ota-onalar farzandining maktabdagi ta'limidan xabar olmaydi, maktabdan tashqari nima bilan shug'illanishi, kimlar bilan birga yurishi, bo'sh vaqtini qanday o'tkazishlari haqida qiziqishmasliklari, aniqrog'i ular farzandining tarbiyasiga befarq.

Farzandni tarbiyalashda e'tibor va nazorat muhim rol o'ynaydi. Agar oiladagi muhit yaxshi bo'lmasa bolalar yomon atrof – muhit ta'siriga tushib qoladi, noqonuniy harakatlarni ham to'g'ri deb hisoblaydi, maktabga yoki jamiyatga bo'lgan qiziqishi pasayadi va jinoyat yo'liga chorlaydigan do'stlari safiga qo'shiladi. Bu toifadagi yoshlar nima uchun jinoyat sodir etishadi? Ota -ona tomonidan beriladigan mehir yetishmasa, oiladagi ijtimoiy ta'minot yetishmasa (bola o'zini kamsitilgan, chetlashtirilgan deb his qiladi). Ko'pchilik yoshlar o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida va oilasiga yordam qilishni istab, o'g'irlik sodir etishadi, yoki kambag'allik sababli stress, tushkunlik va norozilik hissi kuchayadi bu esa jinoyatga moyillikni kuchaytiradi. Ijtimoiy taminot yetishmasligi tufayli ular ta'lim olisha olmaydilar bu degani yaxshi maoshli ishda ishlamasliklarini anglatadi, shu sababli ular oson pul topish yo'llariga o'tishadi. Aksincha, ko'pchilik yoshlar to'qchilik orqali yengil

hayotga odatlanishadi, qimor, spirtli ichimlilar iste'moli, narkotik moddalar va boshqa zararli odatlar.

Ota-onaning jinoyatga aloqadorligi tufayli yoki avtoritar tarbiya – haddan tashqari qattiqqo'llik va jazolash, bu xatti-harakatlar tufayli bola isyonkor, huquqbuzarlikka moyil bo'ladi. Beparvolik ya'ni ota-ona farzandi hayotiga aralashmaydi, shu sababli voyaga yetmaganlar kafe, bar, tungi klub, kompyuter zallarida ko'ngilochar joylarda kechki vaqtlarda yurishadi, bu esa yoshlar jinoyatchilik sodir etishga sabab bo'lmoqda.

Fransuz faylasufi Jean – Jacques Rousseauning fikricha, “Yoshlarni tarbiyalash-bu ularga hayotni o'rgatishdir. Agar biz yoshlikni to'g'ri yo'naltirsak, kelajak jamiyatni to'g'ri yo'naltiramiz”. Shu sababli qonunni buzishga moyil, jamoat tartibini buzgan, jinoyat qilgan voyaga yetmaganlar haqida surishtirilganda ular yetim yoki ota – onasi ajrashgan. Chunki, hozirda nikoh soni kamayib, ajrimlar soni ancha oshganini kuzatish mumkin, bu ajrimlar orqali ko'plab bolalar ota-ona mehridan ancha yiroq va ular ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Axborot texnologiyalar rivojlangan bir paytda, yoshlar ko'rishi taqiqlangan vediolar, kino va filmlar, turli xil zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi o'yinlar kompyuter, ijtimoiy tarmoqlar va jinoyatni targ'ib qiluvchi kontentlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini ko'payishiga ta'sir qilmoqda.

Bu jinoyatlarni olsini olish uchun ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmoqda Misol uchun prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev AQSHning Nyu-York shahrida 2017-yil bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72sessiyasida “Yoshlar huquqlari to'g'risida xalqaro konvensiya”ni qabul qilishni taklif qildi. Voyaga yetmaganlar bilan shug'illanuvchi ichki ishlar, bolalar ishlari bo'yicha kommissiya, vasiylik homiylik organlari, yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari, sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, ta'lim muassasalari bu borada yakka tartibdagi profilaktika ishlarini, oiladagi muhitni ta'minlash bo'yicha ko'plab dasturlarni amalga oshirmoqda. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy -huquqiy yordam ko'rsatish markazlari 3 yoshdan 18 yoshgacha yoshlarni ya'ni nazoratsiz va qarovsiz qolgan, yetimxonalardan qochgan voyaga yetmaganlarga har tomonlama ta'minot beradi.

“ Voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'illanuvchi komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Bu qonunlar tufayli voyaga yetmaganlarning soat 22:00dan keyin kompyuter klublarida, 23:00dan keyin otaonasiz ko'chada bo'lishlari taqiqlandi. Bu esa voyaga yetmaganlar orasida bezorilik va baxtsiz hodisalarni kamayishiga yordam beradi.

XULOSA

Germaniya Fuqarolik kodeksining 1566-moddasiga ko'ra, agar turmush o'rtoqlar bir yil davomida alohida yashagan bo'lsa va har ikkala tomon ajralish

to'g'risida ariza bergan bo'lsa yoki javobgar ajralishga rozi bo'lsa muvaffaqiyatsiz bo'ladi ya'ni ajralish uchun sabab topilmaydi. Agar bu muddat uch yil davomida alohida yashasa va ajralishga o'zaro rozi bo'lsagina ajratiladi, shu sababli bu davlatlarda ajralish soni kam, O'zbekiston qonunlarida esa 6 oy davomida birga yashamasa va o'zaro ajralishga rozi bo'lsa FHDY organlarida ajrashtirib yuboriladi. Mening taklifim bo'yicha, agar er-xotin uchun ajralish qoidalarini bir yil uzaytirsak, ajralish qiyinlashadi, sababsiz ajralishlar soni kamayib, o'rtadagi farzandlar tarbiyasiga e'tibor beriladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekising 47-moddasida [9] ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shxslar bolalarning tarbiyasiga e'tibor bermasa ularga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha jarima yoki bir yil davomida takror sodir etsa besh baravaridan baravarigacha jarima qo'llaniladi lekin, bu amalda ko'p qo'llanilmaydi shu sababli bu boradagi faoliyatni kuchaytirish kerak. Ya'ni, maktab, ko'chada voyaga yetmaganlar tomonidan qilinadigan jinoyatlar aniqlansa ularning ota-onalariga qonuniy chora ko'rilishi yoki maktabda bolalarning ta'limiga befarq va jamoat joylarida tilamchilik qilib yurgan voyaga yetmaganlarning ota-onalarini javobgarlikka tortish kerak. Bu tufayli ko'p sonli ota-onalar bolalari taqdiriga befarq bo'lmaydi.

O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatlarini oldini olishda maxsus sud tizimi yaratish kerak deb hisoblayman. Ya'ni, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyat va huquqbuzarliklarni ko'ruvchi maxsus sud tizimi. Bu orqali yoshlar bilan ishlashga ixtisoslashgan sudyalari va prokurorlar adolatli qarorlar chiqarishda ancha muvaffaqiyatli bo'lishadi. Maxsus sud tizimi yoshlarni qamoqqa tashlash o'rniga, ularni tarbiyalash, jamiyatga qo'shish va foydali faoliyat bilan shug'illanishga yo'naltirish imkonini beradi. Chunki voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar uchun qamoq, ozodlikdan maxrum etish kabi javobgarlik choralari qo'llaniladi, oqibatda ular tarbiyalanish o'rniga ruhiy Zarar ko'radi. Bu yoshlar bilan shug'illanuvchi maxsus sud tizimi bu muammolarni oldini olishga yordam beradi.

Norvegiyada yoshlar jinoyatlari uchun maxsus sud tizimi yaratilgan bu yoshlar jinoyati bo'yicha kengash voyaga yetmaganlarga taalluqli ishlar bo'yicha hay'atni maxsus tayyorgarlikdan o'tgan sudya boshqaradi. Huquqbuzarliklarni oldini olish uchun professional shaxslar, ekspertlar jalb qilinadi.

AQShda voyaga yetmaganlar sudi bu qarovsiz yoki zo'ravonlikka uchragan bolalarning muammolarini ko'rib chiqadi. Sud ikki turdagi ishlarni ko'rib chiqadi: fuqarolik ishlari va bolaning g'ayriijtimoiy xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan jinoiy ishlarni. Bu turdagi sudlar hozirda Yevropa, Lotin Amerikasi, Isroil, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda mavjud lekin tuzilmasi va tartibi turlicha. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudlar mavjud, lekin ular umumiy sud tizimi ichida faoliyat yuritadi. Agar sud tizimi yaratilsa, yoshlar bilan ishlovchi tergovchilar,

advokatlar va sudyalalar ham yoshlar jinoyatchiligini oldini olishda samaraliroq ishlashadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlar jinoyatchiligini oldini olishda oilaviy institutlarni shakllantirish, mahalladagi profilaktika inspektorlari ota-onalar bilan psixologik treninglar (farzandlar tarbiyasiga zamonaviy yondashish, farzandlar uchun stressni boshqarish va salbiy muammolardan tez chiqib ketish bo'yicha maslahatlar) o'tkazish kerak. Chunki, huquqbuzarlilarni oldini olishda o'smirlarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish juda muhim.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Bolalar huquqlari kafolatlari to'g'risida. 2008-yil 7-yanvar, N ZRU-139. 3-modda // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2008,
2. O'zbekistonda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar // Daryo.uz.-2025-yil 20- fevral.- URL
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr, 17-modda//
4. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlar to'plami, 1994,
5. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 1998-yil 30-aprel, 15-modda. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/89629>
6. Dunyo aholisi statistikasi // World Population Review.-2025-yil 20-fevral.- URL:<https://worldpopulationreview.com/> (23.02.2025)
7. O'zbekistonda sud-huquq islohatlari // Gazeta.uz.-2025-yil 20-fevral.
8. Internet materiallari